



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



www.uza.uz


№7(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 232 sahifa,
25-iyul, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Imkoniyati cheklangan talabalarda jismoniy sifatlarni sport mashg'ulotlari yordamida rivojlantirishning afzalliklari	8
Davronov Rustam Iloxovich	
Использование фонетических игр и современных технологий в обучении русскому языку в общеобразовательных школах Узбекистана	15
Абумалик Муталлиевич Дедаханов	
Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish muammo va yechimlar	20
Qudratov O'ktam G'ofurovich	
The Role of Motivation in Learning English	25
Kamoldinova Mushtariybonu Azizbek qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim muhitini boshqarishning ijtimoiy-pedagogik asoslari	30
Axrarova Gulrux Gulamkadirovna	
Bo'lajak logopedlarda metakognitiv-dagnostik kompetentlikni rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi	37
Suvankulova Shaxnoza Karimkulovna	
Ingliz tili darslarida individual va pragmatik yondashuvni amalga oshirish texnologiyalari	43
Yuldasheva Dilnoza Bobojonovna	
Talabalarining texnologik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishning tarkibiy komponentlari	48
Kushbakova Barno Batirkulovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni joriy etishda ijtimoiy hamkorlik va jamoatchilik fikrini shakllantirish	54
Arslanova Madinaxon Mansurovna	
O'quvchi-yoshlarga axloqiy ta'lim-tarbiya berishda qoraqalpoq dostonlarining ahamiyati	59
Esemuratova Turganbike Aytmuratovna	
Talaba markazli yondashuv asosida ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligi	63
Narzullayeva Firuza Olimovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 5-6 yoshdagi bolalarni kasbga yo'naltirish bo'yicha metodik xizmatni takomillashtirish	67
Rizayeva Munisxon Maxkamovna	
Generativ sun'iy intellekt vositalarining ta'lim jarayonidagi pedagogik imkoniyatlari	71
Shodiyev Azizbek Olim o'g'li	
Shaxs kamolotida psixologik salomatlikning ahamiyati va asosiy ko'rsatkichlari	76
Xolova Yulduz Erkinovna	
Zamonaviy ta'lim paradigmasida fizika fanini o'qitish: virtual va to'ldirilgan borliq hamda sun'iy intellekt texnologiyalarining integrativ metodikasi	83
Zuhriddinov Farrux Faxriddin o'g'li	
Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarining o'qish samaradorligini oshirish	87
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual faolligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi individual-psixologik omillar	90
Djurakulova Munira Suyunovna	
Ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlarni takomillashtirish modeli hamda ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri	97
Narzullayeva Firuza Olimovna	
Народное творчество как великое сокровище интеллектуального воспитания	102
Матмуратова Гулистан Камалатдиновна	
Raqamli intellekt: o'quvchilarda mediasavodxonlik kompetensiyasini rivojlantirish – davr talabi	108
Nishonova Muattarxon Alisherovna, Toirova Nafisa Muzaffar qizi	



Umumta'lim fanlaridan dars samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslari.....	111
Toshmamatova Munisa Toshmamatovna	
Xorazm viloyatida ekoturizmni rivojlantirish istiqbollari (tumanlar kesimida).....	115
Xo'jyozova Dildora Shonazar qizi, Dusanova Sharofat Baltaboyevna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ yondashuv asosida innovatsion tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	121
Kadirova Dildora Najadbekovna	
The Integration of Artificial Intelligence in English Language Teaching: Opportunities and Challenges	125
Moxinur Yusupova	
Pragmatik-tizimli portfolio (PTP) texnologiyasi: talabalar reflektiv tafakkurini faoliyat dalillari asosida rivojlantirish.....	131
Abdullayeva Ziroatxon Qurbonovna	
Sog'lig'ida cheklovlari mavjud bolalar jismoniy va psixologik holatini takomillashtirishda yengil atletika mashg'ulotlarining ahamiyati	136
Hikmatova Nigoraxon Hasanboy qizi	
Art badiiy ta'limning rivojida klaster yondashuvi	140
A. S. Umarov	
Simulyatsion o'yin muhitida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-hissiy kompetentligini shakllantirish imkoniyatlari.....	143
Turg'unova Mohinaxon Akmaljon qizi	
O'smirlarda deviant xulq-atvor shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (empirik tadqiqot).....	150
Toshpolatova Robiya Akmal qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida milliy mafkurani shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish	154
Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Esanova Mehrgul Qurbanazarovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi dizartriyaning yengil shakliga ega 6-7 yoshli bolalardagi nutq kamchiliklarini o'yin texnologiyalari asosida korreksiyalashning samaradorligi.....	159
Baxadirova Zulfizar Azimbayevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ va ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarni baholashning diagnostik vositalarini tanlash va qo'llash metodikasi.....	163
Abdullayeva Munojot Muxtorovna	
Talabalarni o'quvchilarning tibbiy tashxisiga mos pedagogik yondashuvlardan foydalanishga o'rgatish usullari.....	169
Yuldashova Iroda Dilshodovna	
Uzoq muddat davolanishga muhtoj bolalar uchun ta'lim muassasalarining tashkil etilishi.....	174
Yusupjanova Shaxnoz Mirzatillayevna	
O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim tizimida raqamli STEAM muhitini joriy etish: o'qituvchilar tayyorgarligi va infratuzilma cheklovlari tahlili.....	178
Abdullayev Doston Sheraliyevich	
Bo'lajak maxsus pedagoglarning faol fuqarolik kompetensiyasining tarkibiy-mezonli modeli va rivojlanganlik darajalari	183
Sultonov Muxammadali Fayzulla o'g'li	
Совершенствование механизмов интеграции стратегического и функционального менеджмента на основе анализа деятельности государственных и международных филиалов вузов	189
A. M. Маргунов	
Решение педагогических проблем, возникающих при обучении письму леворуких учащихся начальных классов	194
Эгамбердиева Юлдуз	
Biologiya ta'limida generativ sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va metodik asoslari	198
Parmonova Marjona O'ktam qizi, Baybayeva Muxayyo Xudoyberganovna	

Bolalarda emotsional intellektni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari	204
Sherdanova Farangiz Raxmat qizi	
Zamonaviy televideniya suxandon nutqining tabiiyligi va auditoriya bilan ishonchli muloqot	208
Maxanbetova Dilnoza	
10-sinf kimyo darslarida "Spirtlar" bo'limini o'qitishda o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish metodikasi.....	211
Nazarova Yulduz Atamuratovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishda ijodiy o'yinlardan foydalanish	215
Yuldasheva Shoxida Botirovna, Kurbanbayeva Moldir Abatbay qiz	
Milliy taraqqiyot g'oyalarida jadid ayollarining o'rni.....	220
Ergashova Mehriniso Husniddin qizi	
Mahalla – oila – ta'lim muassasasi hamkorligi.....	223
Muxtarov Utkirjon Mutalibjanovich, Abdusamatov Ozodbek	
Oliy ta'lim muassasalarida "Mikrobiologiya" modulini raqamli texnologiyalar asosida o'qitishning didaktik imkoniyatlari	227
Reymova Erkinay Atabayevna	



10-SINF KIMYO DARSLARIDA “SPIRTLAR” BO‘LIMINI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARNING KREATIV FIKRLASH QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI



Nazarova Yulduz Atamuratovna

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Amudaryo tumani
66-sonli umumiy o‘rta ta‘lim maktabi kimyo fani o‘qituvchisi

ORCID: 0009-0009-9999-5987

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta‘lim maktablarining 10-sinf kimyo darsligida “Spirtlar” bo‘limini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda interfaol metodlar, animatsion didaktik vositalar hamda muammoli vaziyatlarni tahlil qilish orqali o‘quvchilarning mantiqiy va kreativ fikrlashini rivojlantirish usullari va ularning samaradorligi tajriba-sinov ishlari asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: spirtlar, kimyo o‘qitish metodikasi, kreativ fikrlash, pedagogik texnologiyalar, animatsion didaktik vositalar, 10-sinf, tajriba-sinov, elektron platforma, “Kreativ puzzle”, “8+1”, “O‘ylab o‘rniga qo‘y”, “Express test”, “Doira o‘yini”, 3C+1E pedagogik yondashuv, kreativ topshiriqlar.

Abstract: This article examines the development of students' creative thinking skills during the teaching of the “Alcohols” section in the 10th-grade chemistry textbook of general education schools. The study analyzes methods for developing students' logical and creative thinking through interactive methods, animated didactic tools, and the analysis of problem situations, as well as their effectiveness based on experimental work.

Key words: alcohols, chemistry teaching methodology, creative thinking, pedagogical technologies, animated didactic tools, 10th-grade, experiment, electronic platform, “Creative puzzle”, “8+1”, “Think and put in place”, “Express test”, “Circle game”, 3C+1E pedagogical approach, creative tasks.

Аннотация: В данной статье освещаются вопросы развития навыков креативного мышления учащихся в процессе преподавания раздела “Спирты” в учебнике химии для 10-го класса общеобразовательных школ. В исследовании на основе интерактивных методов, анимационных дидактических средств и анализа проблемных ситуаций проанализированы методы развития логического и творческого мышления учащихся и их эффективность.

Ключевые слова: спирты, методика преподавания химии, креативное мышление, педагогические технологии, анимационные дидактические средства, 10-й класс, эксперимент, электронная платформа, “Креативный головоломка”, “8+1”, “Подумай и поставь вместо”, “Экспресс тест”, “Игра в круг”, педагогический подход 3C+1E, креативные задания.

KIRISH

Zamonaviy ta‘lim tizimida o‘quvchilarga faqat tayyor bilimlarni berish emas, balki ularda mustaqil va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Organik kimyo kursi, xususan, 10-sinfda o‘tiladigan “Spirtlar” mavzusi o‘zining murakkab tuzilishi va moddalarning xossalari o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘liqliklari bilan o‘quvchilarning kreativ va mantiqiy fikrlashini rivojlantirish uchun boy pedagogik potentsialga ega. An‘anaviy o‘qitish usullari ko‘pincha nazariy ma‘lumotlarni yodlashga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilarning spirtlarning molekulyar tuzilishini ko‘z oldiga keltirish va amaliy masalalarda kreativ yechim topish imkoniyatlarini cheklab qo‘ymoqda.

Xorijiy adabiyotlarda kreativlikning eng ko‘p qabul qilingan ta‘rifi yangilik va moslikning birligiga tayangan. M. Runco va G. Jaeger nazarida g‘oya yoki mahsulot yangi bo‘lishi bilan birga vazifaga, kontekstga va qiymat mezoniga mos kelishi kerak.



A. Green esa bu mezonni jarayon nuqtayi nazaridan kengaytirib, kreativlikni generativ maqsadga bo'ysungan ichki diqqat va ongli qidiruv jarayoni bilan bog'laydi. Bu ikki yondashuv bir-birini inkor qilmaydi. Birinchisi kreativ natijani baholash mezonini beradi, ikkinchisi esa natijaga olib boruvchi fikriy harakatni tushuntiradi. Ta'lim uchun aynan shu sintez muhimdir, chunki o'quvchi har safar ijtimoiy miqyosda yangi mahsulot yaratmaydi, biroq o'zi uchun yangi bo'lgan ma'noni quradi, oldingi bilimni yangi vaziyatga ko'chiradi va muammoni boshqacha burchakdan ko'radi. Demak, kreativ fikrlashni faqat mahsulot bilan cheklash ham, uni nazoratsiz fantaziya sifatida talqin qilish ham ilmiy jihatdan yetarli emas. U yangilik, moslik, maqsadlilik va intellektual nazoratning qo'shma ishlashidir.

O'zbekiston pedagogik adabiyotida kreativlik ko'pincha pedagogik kompetentlik, kasbiy faollik va innovatsion faoliyat bilan birgalikda tushuntiriladi.

N. Muslimov, M. Usmonboyeva, D. Sayfurov va A. To'rayev pedagogik kompetentlik va kreativlikni o'qituvchining bilim, ko'nikma, tajriba, tashabbus va yangilikka ochiqqligini birlashtiruvchi kasbiy-pedagogik sifatlar tizimi sifatida ko'rsatadi. Bu yondashuv xorijiy psixologik ta'riflardan farq qiladi, chunki unda kreativlik avvalo shaxsning alohida qobiliyati emas, pedagogik faoliyatni loyihalash, o'quvchini faollashtirish va ta'limiy vaziyatni yangicha tashkil etish imkoniyati sifatida ko'riladi. Shu sababli O'zbekiston maktabi kontekstida kreativ fikrlashni faqat o'quvchining "topqirligi" bilan emas, o'qituvchi yaratadigan metodik sharoit bilan ham bog'lash zarur.

Muammoning dolzarbligi shundaki, kimyo fanida, xususan, "Spirtlar" mavzusida kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi maxsus metodika mavjud emas va shu bilan birga zamonaviy animatsion hamda interaktiv ta'lim vositalaridan foydalanish maktablarda hali keng yo'lga qo'yilmagan.

Predmeti: "Spirtlar" mavzusini o'qitishda kreativ fikrlash metodikasini rivojlantirish shakl, metod va vositalari.

Obyekti sifatida 10-sinf o'quvchilariga kimyo fanida "Spirtlar" mavzusini o'qitish jarayoni olingan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kreativ fikrlashni rivojlantirish masalasi so'nggi yillarda pedagogika va ta'lim metodikasi sohasida eng dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biriga aylandi. Xorijiy tadqiqotlarda kreativlik tushunchasi asosan yangilik, moslik va muammoni samarali hal etish qobiliyati bilan izohlanadi.

M. Runco va G. Jaeger kreativlikning standart ta'rifini ishlab chiqib, har qanday kreativ mahsulot yoki g'oya nafaqat yangi, balki muayyan vazifaga mos va amaliy qiymatga ega bo'lishi lozimligini ta'kidlaydilar.

A. Green esa kreativlikni faqat natija sifatida emas, balki maqsadga yo'naltirilgan fikrlash jarayoni sifatida baholab, unda ongli qidiruv, ichki motivatsiya va generativ tafakkurning muhim o'rin tutishini asoslaydi. Mazkur yondashuvlar ta'lim jarayonida o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish uchun metodik sharoit yaratish zarurligini ko'rsatadi.

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda kreativlik asosan pedagogik kompetentlik, innovatsion faoliyat va zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash bilan uzviy bog'liq holda o'rganilgan.

N. Muslimov, M. Usmonboyeva, D. Sayfurov va A. To'rayev pedagogik kreativlikni o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi tarkibidagi muhim sifat sifatida baholab, ta'lim jarayonini loyihalash, innovatsion metodlarni qo'llash hamda o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish bilan bog'laydilar. Ularning ilmiy ishlari kreativ ta'lim muhitini yaratishning nazariy asoslarini ochib bergan bo'lsa-da, alohida fanlar, xususan kimyo fanining muayyan mavzulari kesimida amaliy metodik yechimlar yetarli darajada yoritilmagan.

Kimyo ta'limi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda muammoli o'qitish, interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va elektron ta'lim resurslaridan foydalanishning o'quvchilarning bilish faolligiga ijobiy ta'siri qayd etilgan. Biroq mavjud ilmiy ishlarda 10-sinf kimyo kursining "Spirtlar" bo'limini o'qitishda animatsion didaktik vositalar, elektron diagnostika platformalari va kreativ topshiriqlarni yagona metodik tizim sifatida integratsiyalash masalasi yetarlicha tadqiq etilmagan.

Shuningdek, muallifning avvalgi ilmiy ishlari "Spirtlar" va "Ko'p atomli spirtlar" mavzularini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, 3C+1E modeli hamda ta'lim innovatsiyalarining samaradorligini yoritishga bag'ishlangan. Mazkur tadqiqotlarda alohida metod va texnologiyalarning afzalliklari tahlil qilingan bo'lsa-da, o'quvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiluvchi yaxlit metodik tizim ishlab chiqilmagan.

Mazkur tadqiqotning o'ziga xosligi shundaki, unda "Spirtlar" bo'limini o'qitishda 3C+1E metodik modeli, animatsion didaktik vositalar, "YulduzSmart" elektron diagnostik platformasi hamda kreativ topshiriqlar o'zaro integratsiyalashgan yagona metodik tizim sifatida qo'llanildi.

Tadqiqot davomida nafaqat o'quvchilarning bilim darajasi, balki ularning mantiqiy va kreativ fikrlash ko'rsatkichlari tajriba-sinov ishlari asosida baholanib, tavsiya etilayotgan metodikaning amaliy samaradorligi asoslab berildi. Shu jihatdan ushbu tadqiqot avvalgi ilmiy ishlardan kompleks metodik yondashuvni taklif etishi bilan farqlanadi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot amaliyoti umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinf o'quvchilari o'rtasida tashkil etildi. Tadqiqotda umumiy 320 nafar o'quvchi ishtirok etdi. O'quvchilar ikkita guruhga ajratildi:

- **Nazorat guruhi (NG):** Mashg'ulotlar amaldagi darslik va an'anaviy o'qitish metodlari asosida olib borildi.
- **Tajriba guruhi (TG):** Mashg'ulotlar muallif tomonidan ishlab chiqilgan va moslashtirilgan 3C+1E (So'rovga asoslangan yondashuv), animatsion didaktik vositalar hamda interaktiv ta'lim platformasi yordamida olib borildi.

Tadqiqot jarayonida "Spirtlar" bo'limini o'rgatishda o'quvchilarning kreativligini oshirish uchun quyidagi pedagogik vositalar kompleksi qo'llandi: spirt molekularining fazoviy tuzilishini vizual ko'rsatuvchi 3D va animatsion didaktik modellar, "YulduzSmart" elektron diagnostik platformasi, "Kreativ puzzle", "8+1", "O'ylab o'rniga qo'y", "Express test", "Doira o'yini", kreativ topshiriqlar.

Spirt molekularining fazoviy tuzilishi, gidroksil guruhi va uglevodorod radikalining o'zaro ta'siri hamda vodorod bog'lanishining hosil bo'lish mexanizmlari dinamik animatsiyalar orqali vizuallashtirildi. O'quvchilarga bir atomli va ko'p atomli spirtlarning sanoat va maishiy hayotdagi ziddiyatli xossalarni tahlil qilishga qaratilgan open-ended (ochiq turdagi) va muammoli vaziyatli masalalar berildi.

Elektron platforma: O'quvchilarning mustaqil ishlashini va bilimlarni o'zlashtirish dinamikasini uzluksiz baholab borish uchun elektron diagnostika tizimidan foydalanildi. Platformada o'quvchilarning mantiqiy, lateral, kreativ fikrlash darajalari va umumiy bilim darajasi alohida-alohida baholanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

10-sinf o'quvchilari orasida tashkil etilgan tajriba va nazorat guruhlarining yakuniy diagnostika natijalari o'zlashtirish darajasi va kreativlik koeffitsiyenti sezilarli darajada oshganligini ko'rsatdi (1-jadval).

Baholash mezonlari va ko'rsatkichlari	Nazorat guruhi (An'anaviy usul)	Tajriba guruhi (Kreativ metodika)	O'sish ko'rsatkichi (%)
Faktdan kelib chiqib mantiqiy xulosa chiqarish	68%	84%	+16%
Kimyoviy muammoli vaziyatlarga original yechim topish	55%	73%	+18%
"YulduzSmart" platformasidagi o'rtacha o'zlashtirish	62%	79%	+17%

Natijalar shuni ko'rsatdiki, animatsion vositalar va interaktiv muammoli vaziyatlar uyg'unligida o'tilgan darslarda o'quvchilarning mavzuni o'zlashtirish va kreativ topshiriqlarni bajarish ko'rsatkichi sezilarli darajada oshdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

10-sinfda "Spirtlar" mavzusini o'qitishda kreativ fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan metodik vositalarni qo'llash o'quvchilarning kimyo faniga bo'lgan qiziqishini orttiradi va bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmasini shakllantiradi. Ushbu tavsiya etilgan metodik yondashuv umumta'lim maktablarida organik kimyoni o'qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kimyo darslarida o'quvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida muammoli savollarning yechimini topishga bag'ishlangan onlayn platformalar yaratish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son1 "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son2 Farmoni. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida.
3. Green A. E., Beaty R. E., Kenett Y. N. [et al.]. The Process Definition of Creativity // Creativity Research Journal. – 2024. – Vol. 36, No. 3. – P. 544–572. – DOI: 10.1080/10400419.2023.2254573.
4. Runco M. A., Jaeger G. J. The Standard Definition of Creativity // Creativity Research Journal. – 2012. – Vol. 24, No. 1. – P. 92–96. – DOI: 10.1080/10400419.2012.650092.

1 <https://lex.uz/docs/-5013007>

2 <https://lex.uz/ru/docs/-4312785>



5. Muslimov N. A., Usmonboyeva M. H., Sayfurov D. M., To'rayev A. B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari: o'quv-metodik qo'llanma. – Toshkent: Sano-standart, 2015. – 120 b.
6. Nazarova Y., Allaniyazova M. "Mektep o'qiwshilarina "Sirtler" temasın oqıtıw metodıkası". – Nókis: "Илимпаз", 2024.
7. Nazarova Y., Reymov A., Tanirbergenov B. "Sirtler". – Nókis: "Илимпаз", 2023.
8. Nazarova Y. Advantage of Using the 3C (Capture Interest, Construct Understanding, Consolidated Learning +1E (Enrichment) Model in Teaching the Topic "Alcohols" to 10th Grade Students // International Journal of Pedagogics. – 2026. – P. 245–250. – Published: 22.04.2026. – DOI: <https://doi.org/10.37547/ijp/Volume06/Issue04-56>.
9. Nazarova Y. "10-sinf o'quvchilariga "Bir atomli spirtlar, ularning gomologik qatori, nomenklatura va izomeriyasi" mavzusini o'qitishda zamonaviy kreativ pedagogik texnologiyalardan foydalanish" // Buxoro davlat universiteti "Pedagogik mahorat" ilmiy-nazariy va metodik jurnali. – 2025-yil, yanvar. – 29–32-b.
10. Nazarova Y., Allaniyazova M., Alauatdinov S. "Effectiveness of the Use of Educational Innovations in Teaching the Topic of Polyatomic Alcohols" // GALAXY International Interdisciplinary Research Journal (GIIRJ). – ISSN (E): 2347–6915. – Vol. 12, Issue 5. – May, 2024. – 66–69 b.
11. Nazarova Y., Tanirbergenov B. "Ko'p atomli spirtlar mavzusini o'qitishda ta'lim innovatsiyalaridan foydalanish samara-dorligi" // PEDOGOGS jurnali. – Volume–26, Issue–1. – ISSN: 2181–4027. – SJIF: 4.995. – 25.01.2023. – 172–176 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.